



## . BOLALARDA TABIATGA QIZIQISH VA EKOLOGIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

*Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi  
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari”*

*kafedrası katta o‘qituvchisi*

***Durmanova Gulchehra Dusiyarovna***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik jihatlari tahlil qilingan. Bolalarning yosh va individual xususiyatlari, bilish jarayonlari hamda hissiy-emotsional rivojlanishining ekologik tarbiyadagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, tabiat bilan bevosita muloqot, kuzatish, o‘yin va amaliy faoliyatlar orqali bolalarda ekologik bilim, ko‘nikma va ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bolalarda tabiatga mehr-muhabbat, mas’uliyat hissi va atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirishda psixologik yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar:*** Maktabgacha yoshdagi bolalar, ekologik tarbiya, ekologik bilim, ekologik ko‘nikma, ekologik tasavvur, tabiatga qiziqish, psixologik rivojlanish, bilish jarayonlari, ekologik madaniyat, hissiy-emotsional rivojlanish, kuzatish faoliyati, o‘yin texnologiyalari, atrof-muhit, ekologik ong, tabiatni asrash.

***Аннотация:*** В данной статье анализируются психологические аспекты развития интереса к природе и экологического воображения у детей дошкольного возраста. Подчеркивается роль возраста и индивидуальных особенностей детей, когнитивных процессов, а также эмоционального и практического развития в экологическом воспитании. Также рассматриваются эффективные методы формирования экологических



знаний, навыков и экологической культуры у детей посредством прямого взаимодействия с природой, наблюдения, игр и практических занятий. Результаты исследования показывают важность психологических подходов в развитии у детей любви к природе, чувства ответственности и осознанного отношения к окружающей среде.

**Ключевые слова:** Дети дошкольного возраста, экологическое воспитание, экологические знания, экологические навыки, экологическое воображение, интерес к природе, психологическое развитие, когнитивные процессы, экологическая культура, эмоциональное и практическое развитие, наблюдательная деятельность, игровые технологии, окружающая среда, экологическое сознание, охрана природы.

**Abstract:** *This article analyzes the psychological aspects of the development of interest in nature and ecological imagination in preschool children. The role of children's age and individual characteristics, cognitive processes, and emotional and emotional development in ecological education is highlighted. Also, effective methods of forming ecological knowledge, skills, and ecological culture in children through direct communication with nature, observation, games, and practical activities are considered. The results of the study show the importance of psychological approaches in developing love for nature, a sense of responsibility, and a conscious attitude to the environment in children.*

**Keywords:** *Preschool children, ecological education, ecological knowledge, ecological skills, ecological imagination, interest in nature, psychological development, cognitive processes, ecological culture, emotional and emotional development, observation activities, game technologies, environment, ecological awareness, nature conservation.*

## KIRISH

Bugungi kunda atrof-muhit muammolarining tobora kuchayib borishi ekologik madaniyatni shakllantirish va yosh avlodni tabiatga ongli munosabat ruhida



tarbiyalash masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Ekologik tarbiyaning samaradorligi esa, avvalo, bolalik davridan boshlab tabiatga mehr-muhabbat, uni asrash va muhofaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘liq. Shu jihatdan maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalarning atrof-muhit haqidagi dastlabki tasavvurlari, qiziqishlari va qadriyatlari shakllanadi. Ular tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonot olamiga katta qiziqish bilan qaraydilar, kuzatish va amaliy faoliyat orqali yangi bilimlarni egallaydilar. Shu sababli ekologik bilim va tasavvurlarni shakllantirishda bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishning rivojlanishi ularning bilish jarayonlari, ya‘ni sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Tabiat bilan bevosita muloqot qilish, kuzatishlar olib borish, o‘yin va tajribalar tashkil etish bolalarda ekologik tushunchalarning shakllanishiga yordam beradi. Ayniqsa, hissiy-emotsional ta‘sirler bolalarda tabiatga mehr va g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ekologik muammolarning oldini olish va ekologik madaniyatli avlodni tarbiyalash maktabgacha ta‘limdan boshlanishi zarur. Bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabat, ekologik ong va ekologik mas‘uliyatni shakllantirish orqali kelajakda atrof-muhitni asrashga qodir bo‘lgan shaxslarni voyaga yetkazish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik jihatlarini o‘rganish hamda ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iborat.



Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish;
- bolalarda tabiatga qiziqishning shakllanish omillarini aniqlash;
- ekologik tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik asoslarini yoritish;
- ekologik tarbiyada o‘yin, kuzatish va amaliy faoliyatning ahamiyatini o‘rganish;
- bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, unda bayon etilgan fikr va tavsiyalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, pedagoglar hamda otalar tomonidan bolalarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida foydalanilishi mumkin. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiya samaradorligini oshirish va bolalarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va ekologik ta’lim sohalaridagi ilmiy manbalar tahlil qilinib, mavzuga oid nazariy va amaliy yondashuvlar o‘rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari tashkil etdi. Tadqiqot davomida bolalarning tabiatga bo‘lgan qiziqishi, ekologik tasavvurlari va ekologik xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:



### Nazariy tadqiqot usullari

- Mavzuga oid pedagogik, psixologik va ekologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish;
- Mavzuga oid ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish;
- Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish.

### Empirik tadqiqot usullari

Kuzatish metodi-Bolalarning tabiat bilan muloqot qilish jarayoni, o'simlik va hayvonlarga bo'lgan munosabati, ekologik faoliyatdagi ishtiroki muntazam kuzatildi. Kuzatishlar orqali bolalarning tabiatga qiziqish darajasi va ekologik tasavvurlarining shakllanish holati aniqlandi.

Suhbat metodi-Bolalar bilan ekologik mavzularda individual va guruhli suhbatlar tashkil etildi. Suhbat davomida ularning tabiat haqidagi bilimlari, ekologik tushunchalari va qiziqishlari o'rganildi.

### Savol-javob metodi

Bolalarning ekologik bilimlarini aniqlash maqsadida ularning yoshiga mos savollar berildi. Olingan javoblar tahlil qilinib, ekologik tasavvurlar darajasi baholandi.



Pedagogik tajriba metodi-Ekologik o'yinlar, tabiatni kuzatish mashg'ulotlari, tajribalar va amaliy faoliyatlar tashkil etilib, ularning bolalar ekologik bilimlari va ko'nikmalariga ta'siri o'rganildi.

Faoliyat mahsullarini tahlil qilish-Bolalarning rasmlari, ijodiy ishlari, aplikatsiyalari va ekologik mavzulardagi topshiriqlari tahlil qilinib, ularning tabiat haqidagi tasavvurlari baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi-Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik omillari tizimli ravishda yoritildi. Shuningdek, ekologik tarbiya jarayonida o'yin, kuzatish va amaliy faoliyatlarning bolalar ekologik ongini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berildi.

#### Tadqiqotning ishonchliligi

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-nazariy manbalarning chuqur tahlili, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish, kuzatish va tajriba natijalarini qiyosiy tahlil qilish hamda olingan ma'lumotlarni umumlashtirish orqali ta'minlandi.

Mazkur metodologiya maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining psixologik asoslarini chuqur o'rganish va samarali tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

### TAHLILLAR

Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirish jarayoni psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. O'tkazilgan kuzatishlar, suhbatlar va pedagogik tajribalar natijalari bolalarning ekologik bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirish darajasi ularning yosh xususiyatlari hamda bilish jarayonlarining rivojlanishiga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.



Bolalarda tabiatga qiziqishning shakllanishi-Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bog'cha yoshidagi bolalarda tabiatga qiziqish eng avvalo hissiy-emotsional ta'sir orqali shakllanadi. Rang-barang gullar, hayvonlar, qushlar va tabiat hodisalari bolalarda ijobiy hissiyot uyg'otadi. Ayniqsa, jonli tabiat bilan bevosita muloqot (gul ekish, qushlarni kuzatish, suv quyish) bolalarning qiziqishini kuchaytiradi.

Kuzatish jarayonida aniqlanishicha, tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan qiziqarli mashg'ulotlar bolalarda faol ishtirok va savollar berish faolligini oshiradi. Bu esa ularning bilishga bo'lgan ichki ehtiyojini rivojlantiradi.

Ekologik tasavvurlarni shakllanish darajasi-Suhbat va savol-javoblar natijasida bolalarning ekologik tasavvurlari turlicha darajada ekanligi aniqlandi. Ba'zi bolalar tabiat hodisalarini sodda tushunchalar asosida izohlay olgan bo'lsa, ayrimlarida tasavvurlar hali to'liq shakllanmaganligi kuzatildi.

Masalan, "Nima uchun o'simliklarga suv kerak?" yoki "Nega daraxt barglari to'kiladi?" kabi savollarga javoblar bolalarning sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish darajasini ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ekologik tasavvurlarni rivojlantirishda ko'rgazmalilik va amaliy faoliyat muhim rol o'ynaydi.

Bilish jarayonlarining roli-Tahlillar davomida bolalarning sezgi va idrok jarayonlari ekologik bilimlarni shakllantirishda yetakchi o'rin tutishi aniqlandi. Bolalar tabiatni ko'rish, eshitish va his qilish orqali tezroq o'zlashtiradilar.

Diqqat va xotira jarayonlari esa ekologik ma'lumotlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, bolalar tabiat haqidagi she'r va hikoyalarni tez eslab qolishi kuzatildi. Tafakkur jarayoni esa asta-sekin rivojlanib, bolalarda oddiy ekologik sabab-oqibat munosabatlarini tushunish shakllanayotganini ko'rsatdi.

#### O'yin va amaliy faoliyatning ta'siri

Pedagogik tajribalar natijasida ekologik mazmundagi o'yinlar bolalarda katta qiziqish uyg'otishi aniqlandi. Rolli va didaktik o'yinlar orqali bolalar tabiatni asrash, gullarga g'amxo'rlik qilish va hayvonlarga mehr ko'rsatish kabi ko'nikmalarni o'zlashtirdilar.



Amaliy faoliyat (gul ekish, suv quyish, tabiat burchagida ishlash) bolalarda mas'uliyat hissini kuchaytirdi va ekologik xulq-atvorning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

#### Hissiy-emotsional rivojlanish tahlili

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarda tabiatga nisbatan hissiy munosabat ekologik tarbiyaning eng muhim omillaridan biridir. Tabiat go'zalligini kuzatish bolalarda quvonch, hayrat va mehr tuyg'ularini uyg'otadi. Bu esa ekologik madaniyatning shakllanishiga zamin yaratadi.

#### Umumiy xulosa tahlili

Tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim va tasavvurlarni shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda o'yin, kuzatish, amaliy faoliyat va hissiy ta'sirlarning uyg'unligi yuqori samaradorlik beradi. Shuningdek, tarbiyachi va ota-onaning hamkorligi bolalarda ekologik ongni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

### **MAVZU YUZASIDAN XULOSALAR**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qiziqish va ekologik tasavvurlarni rivojlantirish ularning psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu yosh davri bolalarda ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun eng qulay bosqich bo'lib, aynan shu davrda tabiatga nisbatan ijobiy munosabat, mehr-muhabbat va dastlabki ekologik tushunchalar shakllanadi. Bolalarning bilish jarayonlari, ya'ni sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning rivojlanishi ekologik tasavvurlarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, tabiat bilan bevosita muloqot qilish, uni kuzatish va amaliy faoliyatda ishtirok etish bolalarda ekologik bilimlarning chuqur va mustahkam shakllanishiga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ekologik mazmundagi o'yinlar bolalarda tabiatga qiziqishni oshirishi, ularning hissiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va ekologik madaniyatni shakllantirishda samarali vosita ekanligi



aniqlandi. Tabiat go‘zalligini kuzatish, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish jarayonlari bolalarda mehr-shafqat, mas‘uliyat va ehtiyotkorlik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Amaliy faoliyat, jumladan gul ekish, sug‘orish va tabiat burchagida ishlash esa bolalarda ekologik ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, oila va maktabgacha ta‘lim tashkilotining hamkorligi ekologik tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bolalarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish uchun tarbiyachi va ota-onalar tomonidan tizimli va izchil yondashuvni amalga oshirish zarur. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish psixologik, pedagogik va amaliy jihatdan kompleks yondashuvni talab qiladi hamda kelajak avlodning tabiatga ongli va mas‘uliyatli munosabatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
4. G‘oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
5. Mahkamova G. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. – Toshkent, 2019.
6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Ziyomammedov B. Ta‘lim texnologiyalari. – Toshkent, 2012.
8. Piaget J. The Psychology of Child Development. – London, 2001.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.



10. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. – Paris, 2017.
11. Davydov V.V. Types of Generalization in Instruction. – Moscow, 1990.
12. Maktabgacha ta'lim metodik qo'llanmalar to'plami. – Toshkent, 2021.